

UDK: 576.895

**QORAQALPOG'ISTON SHAROITIDA BO'RSIQLAR POPULYATSIYASI
VA GELMINTOFAUNASI**

Kizilbaeva Kumisay Saparbay qizi – student

kkizilbayeva@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПОПУЛЯЦИЯ И ГЕЛЬМИНТОФАУНА БАРСУКА В УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА

Кызылбаева Кумисай Сапарбаевна – студент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**POPULATIONS AND HELMINTOFAUNA OF BARSSICS IN THE CONDITIONS
OF KARAKALPAKSTAN**

Kizilbaeva Kumisay Saparbaevna – student

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: Mustelidae, *Meles meles*, ekologik, gelmintofauna, turkum, oila, avlod.

Rezyume. 25 nusxa yovvoyi bo'rsiqlarda gelmintologik tekshirishlar o'tkazildi. Tadqiqotlar natijalariga kura bo'rsiqlarda 16 tur gelmintlar qayd etilgan bo'lib, ular 3 tip, 4 sinf, 8 turkum, 12 oila va 14 avlodga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi. Ulardan 3 tur sestodalar, 1 tur trematodalar, 3 tur akantotsefalalar va 9 tur nematodalar ekanligi aniqlandi.

Ключевые слова: Mustelidae, *Meles meles*, экологический, гельминтофауна, отряд, семейство, род.

Резюме. Гельминтологические исследования проведены на 25 экземплярах диких барсуков. По результатам исследований у барсуков зарегистрировано 16 видов гельминтов, которые относятся к 3 типам, 4 классам, 8 отрядам, 12 семействам и 14 родам. Из них 3 вида цестод, 1 вид трематод, 3 вида акантоцефалов и 9 видов нематод.

Key words: Mustelidae, *Meles meles*, ecological, helminth fauna, order, family, genus.

Summary. Helminthological studies were conducted on 25 wild badgers. According to the research results, 16 species of helminths were recorded in badgers, which belong to 3 types, 4 classes, 8 orders, 12 families, and 14 genera. Of these, 3 species of cestodes, 1 species of trematodes, 3 species of acanthocephalans, and 9 species of nematodes were identified.

Kirish. Qoraqalpog'istonning landshafti va ekologik sharoiti Mustelidae oilasi, jumladan, bo'rsiqlarning gelmint faunasini shakllantirish uchun juda qulay bo'lib hisoblanadi, bo'rsiqlarning populyatsiyasi va gelmintofaunasini urganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mustelidae oilasi vakillari orasidagi bo'rsiq yirik va yirtqish hayvon hisoblanadi. Bo'rsiqlar Qoraqalpog'istonning barcha tabiiy-geografik mintaqalarda jumladan Oral dengizining qurigan tubida, Qizilqum va Ustyurt tekisligining ayrim hududlarida, Amudaryo deltasi atrofidagi dolaliliklarda, qamishzorlarda ushiratish mumkin, va undan tashqari fermer ekin maydonlariga, qishloq aholisining tamrqa ekin maydonlariga ovqatlanish uchun keshki qarang'o' payitlari chiqib turadi. Bo'rsiqlar eng ko'p populyatsiyasi Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati Xisoblanadi.

Bursiqlar qishgi uyquga ketishdan oldin teri osti yog' qabatini yig'adi va butun qish movaynida uyquga ketadi.

Bo'rsiqlar – umirining ko'b vaqtini er osti inlarida o'tkizadi, chuning uchun ular ko'plab kirish va chiqish joylari, uyqu joyi alohida, ahlat joyi alohda bo'lgan keng va chuqurlikdan iborat butun labirintni yaratadi. Ular assosan chuvalchanglar, hasharotlar, mollyuskalar, mayda umurtqalilar (amfibiyalar, ayrim reptiliyalar), yerga uya quruvchi qushlarning tuxumlari, sichqonsimon kemiruvchilar (asosan, sichqonlar), turli-xil o'simliklar va ularning ildizlar, qavun-tarbuzlar, ayrim vaqtlari mevalar bilan ham oziqlanadi.

Ma'lumki, yirtqich hayvonlar, shu jumladan bo'rsiqlar tabiatdagi gelmintozlar qo'zg'atuvchilarini o'z ichiga olgan ko'plab patogenlarning tashuvchisi va tarqatuvchisi

hisoblanadi. Bu patogenlar Mustelidae oilasi vakillarining sog'lig'iga zarar etkazish bilan birga, qulay sharoitlarda uy etxo'r va tuyoqli hayvonlariga hattoki odamlarga ham yuqishi imkoniyati yuqori bo'ladi [3].

Tip: Chordata (Хордовые) Bateson, 1885

Sinif: Mammalia (Млекопитающие) Linnaeus, 1758

Turkum: Carnivora (Хищные) Bowdich, 1821

Oila: Mustelidae (Куны, или куньицевые) Fischer-waldheim, 1817

Avlod: *Meles* (Барсуки) Linnaeus, 1758

Tur: *Meles meles* (Барсук) Linnaeus, 1758.

Bo'rsiq *Meles meles* ni Respublikamizda mavjud ko'l bo'ylaridagi qamishzorlar va butazorlarida, Amudaryo deltasi atrofidagi to'qayzorlarda, qamishzorlar va ekin maydonlarda, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida uchraydi. SHuningdek chekka hududlardagi aholi yashash punktlariga yaqin joylarda ham ko'plab uchratish mumkin.

Bo'rsiqlarning tabiatdagi yashash tarziga ko'ra, ular gelmint invaziyasining asosiy qo'zg'atuvchilaridan biri hisoblanadi. SHuning uchun ham ularni o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Janubiy Orolbo'yi bo'rsiqlarning gelmintlar faunasini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqot ishlari 2023-2026 yillar davomida, Qoraqalpog'iston Respublikasining bir necha tumanlarida mavsumiy ravishda olib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar davrida hayvon o'lganidan keyin to'liq va to'liq bo'lmagan gelmintologik yorib ko'rish usullaridan foydalanildi [2]. Har bir topilgan gelmint o'zining turli rivojlanish bosqichlarida ekanligi aniqlandi va yig'ilgan materiallar 70% va 96% li spirtida fiksatsiya qilindi va etiketka yopishtirildi.

Topilgan gelmint turlarini aniqlash ishlari Nukus davlat pedagogika instituti Eksperimental biologik tadqiqotlar laboratoriyasida amalga oshirildi, belgilangan usullar va adabiyot ma'lumotlari yordamida gelmint turlari aniqlandi [1].

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasining turli xududlaridan tutib olingan 25 nusxa yovvoyi bo'rsiqlarda gelmintologik tekshirishlar o'tkazildi [2].

Tadqiqotlar natijalariga kura bo'rsiqlarda 16 tur gelmintlar qayd etilgan bo'lib, ular 3 tip, 4 sinf, 8 turkum, 12 oila va 14 avlodga mansub ekanligi ma'lum bo'ldi (1-jadval).


1-jadval. Qoraqalpog'iston xududida bo'rsiqlarning gelmintlar bilan zararlanishi

№	Gelmint nomi	Lokalizat siyasi	IE		II	
			nusxa	%	min-max	M±m
1	<i>Alaria alata</i>	ingichka ichak	5	20,0 %	3-9	4,9±0,3
2	<i>Spirometra erinacei-europei</i>	ingichka ichak	2	8,0 %	2-7	3,6±0,2
3	<i>Dipylidium caninum</i>	ingichka ichak	3	12,0 %	3-11	8,7±0,6
4	<i>Mesocostoides lineatus</i>	ingichka ichak	3	12,0 %	1-13	8,8±0,6
5	<i>Macracanthorynchus hirudinaceus</i>	ingichka ichak	3	12,0 %	1-11	8,6±0,6
6	<i>Macracanthorhynchus catulinus</i>	ingichka ichak	4	16,0 %	2-7	4,1±0,2
7	<i>Moniliformis moniliformis</i>	ingichka ichak	3	12,0 %	2-12	8,3±0,6
8	<i>Capillaria putorii</i>	ingichka ichak	2	8,0 %	2-9	4,8±0,3
9	<i>Thominx aerophilus</i>	traxeya va bronxlar	2	8,0 %	2-8	3,6±0,2
10	<i>Ancylostoma caninum</i>	ingichka va yo'g'on ichak	2	8,0 %	3-13	5,2±0,4
11	<i>Uncinaria stenocephala</i>	ingichka va yo'g'on ichak	2	8,0 %	3-16	12,5±1,2

12	<i>Crenosoma vulpis</i>	bronxlar-da	3	12,0 %	2-17	13,3±1,3
13	<i>Toxocara canis</i>	oshqozon, qorin bo'shlig'i, ingichka va yo'g'on ichak	4	16,0 %	2-41	22,7±2,0
14	<i>Vigisospirura potekhini</i>	oshqozon	3	12,0 %	3-15	9,7±0,8
15	<i>Physaloptera sibirica</i>	ingichka ichak	2	8,0 %	3-17	12,4±1,2
16	<i>Pneumospirura capsulata</i>	ingichka ichak	3	12,0 %	2-19	12,5±1,2

Ulardan 3 tur sestodalar, 1 tur trematodalar, 3 tur akantotsefalalar va 9 tur nematodalar ekanligi aniqlandi.

Trematoda sinfi 1 ta tur va umumiy turlar sonining 6,25 % ni tashkil etadi; Cestoda sinfi 3 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 18,75 % ni tashkil etadi; Acanthocephala sinfi 3 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 18,75 % ni tashkil etadi; Nematoda sinfi 9 ta turni birlashtiradi va umumiy turlar sonining 56,25 % ni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Qoraqalpog'iston xududida bo'rsiq gelmintlarining sinflar kesimida taqsimlanishi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'rsiq gelmintlar faunasining shakllanishida ularning ovqatlanishining asosini tashkil etuvchi oraliq xo'jayinlarining ahamiyati katta va ular hayvonlar o'rtasidagi ekotizimda gelmintlarning tarqalishida ham muhim ahamiyatga ega. Oraliq xo'jayinlarning tarqalishining oldini olish va nazorat qilish choralarini, shuningdek gelmint infeksiyalarini davolash vositalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Козлов Д.П. Определитель гельминтов хищных млекопитающих СССР. – Москва: «Наука», 1977.
2. Скрыбин К.И. Методы полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая человека. – Москва: МГУ, 1928.
3. Shernazarov E.SH., Vashetko E.V., Kreysberg E.A., Bikova E.A., Xurshut E.E. O'zbekistonning umurtqali hayvonlari. (Umurtqali hayvonlar nomlarining ma'lumotnomasi. Lotin, o'zbek, rus, ingliz tillarida). O'zR FA «Fan» nashriyoti, 2006.